

**BUGUNGI BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI:  
MULOHAZA VA TAKLIFLAR**

**Erpo‘lat Baxt**

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi*

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada filologiya fanlari doktori, professor Rahmatulla Barakayevning o‘zbek bolalar adabiyoti tadqiqotiga qo‘shgan munosib hissasi va bugungi o‘zbek bolalar adabiyotida uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi.

*Kalit so‘zlar:* adabiyotshunoslik, ilmiy tadqiqot, bolalar adabiyoti, muammolar.

Darhaqiqat, har bir davrda adabiyot va ma‘rifatning yuksalish hamda rivojlanish bosqichlari mavjud bo‘ladi. O‘zbek bolalar adabiyoti ham azaldan tadrijiy takomillashib kelgan. Sho‘ro davri adabiyotshunoslari o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lish solnomasini “Ulug‘ oktyabr inqilobi” deya sharaflanib kelingan 1917-yil oktyabrdagi davlat to‘ntarilishi bilan bog‘laydi. Taniqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Rahmatulla Barakayevning tadqiqotlarida esa bu fikrga keskin raddiyalar beriladi. Olim o‘zining ma‘rifatparvar jadid Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotida Sho‘ro davri adabiyotshunoslari fikrlari asossiz ekanini birinchilardan bo‘lib isbot qilar ekan, jumladan shunday yozadi: **“...o‘zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishini Oktyabr inqilobiga keltirib taqash, ya‘ni “o‘zbek bolalar adabiyoti Oktyabr inqilobining mahsulidir”, - degan xulosa bor. Demak, Oktyabr inqilobi ro‘y bermaganda, umuman “o‘zbek bolalar adabiyoti” degan tushuncha ham maydonga kelolmas ekan-da?!”**<sup>1</sup>

Mazkur kinoyaomuz fikr bilan R.Barakayev sho‘ro adabiyotshunoslariga keskin e‘tiroz bildiradi. Olim o‘z tadqiqotlarida o‘zbek adabiyoti folklori va mumtoz adabiyot namunalari bolalar adabiyotini boyitib turuvchi manba ekanini isbotlab bergani chinakam jasoratdir.

Rahmatulla Barakayev boshlab bergan xayrli ishlarni davom ettirish uchun keyingi tadqiqotchilar oldida o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanish bosqichlarini davrlarga bo‘lib o‘rganish vazifasi turadi. Shuningdek, bolalar adabiyoti namunalari mazmun-mundarijasini tadqiq qilish ham juda muhim vazifa sanaladi.

**“Binobarin, umuman o‘zbek adabiyoti tarixini va, xususan, XX asr boshlaridagi adabiyotimizni davrlashtirish, tadqiq etish, har bir davr adabiyotida yetakchi o‘rin tutgan ijodkorlarni ta‘yin etish, ularning barcha asarlarini sof adabiyotshunoslik ilmi talablari nuqtayi nazaridan tasnif va targ‘ib qilish xalqimizning milliy, madaniy va adabiy qadriyatlarini tiklash**

<sup>1</sup> Barakayev R. “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy”, Monografiya. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2004-yil.

**manfaatlari nuqtayi nazaridan o‘ziga xos mavqe’ kasb etadi”**,<sup>2</sup> - deb yozadi Rahmatulla Barakayev o‘zining fundamental tadqiqotining kirish qismida.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zbek bolalar adabiyotining 1917-yilgi oktyabr evrilishiga qadar bo‘lgan davri alohida chuqur tadqiqotlarni va o‘rganishni talab qiladi. XX asr sho‘rolar davri boshlaridan 1950-yillargacha bo‘lgan davri esa alohida izlanishlar uchun mavzu bo‘la oladi. Bu davrda yetishib chiqqan Hamid Olimjon, G‘ayratiy, Sulton Jabbor, Zafar Diyor, Quadrat Hikmat, Ilyos Muslimlarning quvnoq va sho‘xchan she‘r va qo‘shiqlari bolalar adabiyotining bir muncha boyitishga xizmat qilgani e‘tirofga molik, albatta.

Jahon adabiyotining nomdor vakillari bolalar uchun asar yaratish o‘ta murakkab yumush ekanini ta’kidlagan. Buning sababi so‘ralganida, bunday asarlarni yaratish uchun ijodkorda bolalarga xos ruhiyat bo‘lishi zarurligini tushuntirishgan. Umumjahon bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyati ishonarlilik, soddalik, ohangdorlik va sarguzashtga boyligi bilan ahamiyat kasb etadi. 1950-yilgacha bo‘lgan o‘zbek bolalar adabiyotida ana shu jihatlar ko‘zga tashlanadi. 1950-yildan 1970-yillar boshlarigacha bo‘lgan davrda esa o‘zbek bolalar adabiyotidagi tiniq ohanglarni nasihatbozlik bosib ketdi. Bolalar bog‘chasidan maktabgacha bo‘lgan ta’lim dargohlari darsliklari faqat ana shunday pand-nasihat, quruq bayonchilikdan iborat she‘rlar bilan to‘ldirildi. 1970-yillar o‘rtalarida o‘zbek bolalar adabiyotida yangi to‘lqin vujudga keldi. Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Safar Barnoyevlar asarlarida bolalar dunyosiga xos quvnoqlik, sodda va beg‘ubor tuyg‘ular tarannum qilingani bilan ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, Anvar Obidjon asarlarida mustabid sho‘ro davri bo‘lishiga qaramay mustaqillik, ozodlik g‘oyalari ilgari surildi. Ijodkorning “Ey yorug‘ dunyo”<sup>3</sup> qissasi XX asrning saksoninchi yillarida kitob holida ko‘pming nusxada chop qilingan. Mazkur asardagi bosh qahramon zulmat cho‘kkan, fuqarolari chirkin siyosat ta’siridan qabih odamlarga aylanib bo‘lgan qorong‘u g‘orga tasodif tufayli tushib qoladi. Qorong‘ulik saltanati, ya’ni Yulduziston podshosi Isqirt Birinchi ham kaltafahm, badniyat va betavfiq bola bo‘ladi. Muallif bolalar tiliga mos ravishda yaratgan bu asarida kuchli hajvga urg‘u bergan holda bu yerning kishilariga xos illatlarni fosh etib beradi. Yulduziston fuqarolari ikkiyuzlamachi, o‘zligini unutgan, yuviqsiz shaxslar deb ko‘rsatiladi. Ular uchun poklik va ezgulik yot narsa. Kimki yuvinsa, poklansa, jazo olishi muqarrar. Laganbardor shoirlari faqat ifloslikni madh etishadi. Shoir Dutoriy:

Hammomingga kirmayman, vijdonim bordir,  
O‘ldirsang ham ko‘nmayman, imonim bordir.

<sup>2</sup> Barakayev R. “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy”, Monografiya. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2004-yil

<sup>3</sup> Anvar Obidjon, “Ey yorug‘ dunyo”. Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1983-yil.

Kechib sovun-lungidan menman baxtiyor,

Ey, Dutoriy, ajoyib zamonim bordir,<sup>4</sup>

deb a’shorlar bitib, mukofotlar olib yuradi. Ammo tikanzor orasida to‘tiyo bitganidek, bu zaminning ham adolatpesha, halol insonlari ham bor edi. Ular bu yerda bijib yotgan chirkinlikka qarshi kurashgisi, adolat o‘rnatgisi keladi. Asar bosh qahramoni bo‘lgan bola ularga rahnomalik qiladi. Ular birgalashib zulmat saltanati hukmdoriga qarshi kurashadilar va yorug‘ dunyoga chiqishga muvaffaq bo‘ladilar...

Ushbu asarda ulug‘ bir ishora – mustaqillik g‘oyasi tepamizda qizil imperiya zug‘umlari avj olgan turg‘unlik davri, ya’ni 1980-yillarda ilgari suriladi.

Yozuvchining “Dahshatli Meshpolvon” kitobi<sup>5</sup>da ham ozodlik g‘oyasi o‘sha sho‘rolar davrida dadillik bilan qalamga olingan. Undagi Meshpolvonning ota-onasini tutqunlikka giriftor etgan Qahratoniya podshohi bilan kurashib, uni yengib bandi qilingan vatandoshlarini qullikdan qutqarib qaytishi bugungi erkin, tinch va farovon turmushimizga bo‘lgan umidni aks ettirgan edi.

Darhaqiqat, adabiyot kechagi kundan ko‘ra bugunning va kelajak borasidagi o‘y-xayol, orzu-umid, fikr-mushohadalarning timsoli bo‘lsa, yana-da qudratli bo‘ladi. Ko‘ngil istagini o‘z vaqtida aks ettirilgan adiblar eng baxtli iste’dod sohiblaridir. Qo‘liga qalam tutgan qobiliyat egasi adabiyot oldidagi o‘z burchi nimalardan iborat ekanini chuqur his etmog‘i lozim. Fikrni o‘z vaqtida aytmog‘i, g‘oyani o‘z vaqtida ilgari surmog‘i zarur. Bil’aks, Dutoriy singari maddohlar tilidan tushmagan g‘aliz va siyqasi chiqqan to‘tinamo ohanglar ko‘paymaydi.

E’tiborlisi shuki, Tursunboy Adashboyev, Xudoyberdi To‘xtaboyev va Anvar Obidjonlar o‘zbek bolalar adabiyotida tub burulish yasagan ijodkorlar sanaladi. Bu fidoyi bolalar adiblari Xudoyberdi Komil, Kavsar Turdiyeva, Rustam Nazar, Hamza Imonberdi, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Zafar Isomiddin, Ne’mat Dushayev, Ro‘zimurod Bolqiyev kabi bolalar shoirlarining kamolga yetishiga munosib hissa qo‘shdilar. Tursunboy Adashboyev, Xudoyberdi To‘xtaboyev va Anvar Obidjonlar tamal toshini qo‘ygan o‘zbek bolalar adabiyotining yangi davri jahon jamoatchiligi tomonidan e’tirof qilingan, asarlari ko‘p tillarga tarjima qilinib, adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu borada, ayniqsa, R.Barakayevning xizmatlarini alohida tilga olib o‘tish o‘rinli. O‘zining fundamental tadqiqot ishi bo‘lgan monografiyasi hamda qator maqolalarida Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Miraziz A’zam, Hamza Imonberdiyev, Kavsar Turdiyeva va Dilshod Rajablarning ijodiy faoliyatiga munosib ilmiy nuqtayi nazardan baho berilgan<sup>6</sup>.

<sup>4</sup> Anvar Obidjon, “Ey yorug‘ dunyo”. Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1983-yil.

<sup>5</sup> Anvar Obidjon, “Dahshatli Meshpolvon”. Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1990-yil.

<sup>6</sup> Barakayev R. “Jonajonim, she’riyat”. Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1997-yil.

Shu o‘rinda bugungi bolalar adabiyoti oldida turgan dolzarb vazifalar haqida to‘xtalib o‘tish o‘ta muhim sanaladi. Aytish kerakki, yada toshi omilida poklangan tegaradek bolalar adabiyoti endilikda hech qachon 50-60-yillardagidek holatga qaytmasligi kerak. Bugun qarshimizda “Ustozlar olib chiqqan rivojlanish nuqtasini saqlab qola olamizmi yoxud undan ham yuqori darajada takomillashtira olamizmi?” degan savol paydo bo‘layapti. Bu savolga ijobiy va to‘laqonli javob berish uchun salmoqli asarlar yaratish zarur. Afsuski, ana shunday asarlar salmog‘i tobora kamayib borayotganga o‘xshaydi.

Kezi kelganda men ta’bir joiz bo‘lsa, bolalar adabiyotini katta bir eshelonga qiyoslagan bo‘lardim. Chunki kichkintoylar uchun yaratiladigan qo‘shiq, badiiy film va spektallarning barchasi bolalar adabiyoti mahsulidir. Shuning uchun ham bolalar adabiyoti oqsasa yoxud e’tibordan chetda qolsa, jajjilar olami deb ataladigan boshqa san’at turlari ham turg‘unlikka duch keladi.

Nazarimda bugungi bolalar adabiyoti haqida ko‘pchilik yakdil fikr bildirishi qiyin, albatta. Chunki Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarlarning bu yorug‘ olamni tark etishi bilan chekka hududlarda yashab ijod qilayotgan bolalar adiblariga bo‘lgan e’tibor birmuncha susaygandek tuyulgan edi. Ularning asarlarini kitob holida nashr qildirish, davriy matbuotda yoritish muammolari paydo bo‘la boshladi. Biroq, shunisi quvonarliki, professor Rahmatulla Barakayev mamlakatimizning turli viloyatlarida yashab bolalar uchun asarlar yaratayotgan qalamkashlar ijodini o‘rganish, tadqiq qilishga har doim diqqat-etiborini qaratib keladi. Ustoz-shogird an’analarini izchil davom ettirayotgan fidoyi olim R.Barakayevning ilmiy rahbarligida chekka hududlardagi o‘nlab bolalar adiblarining ijodi yosh tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilayotgani tahsinga munosib.

Garchi shunday bo‘lsa-da bolalar ijodkorlarini qiynayotgan talaygina muammolar mavjud. Bu borada so‘z ketganda, birinchi navbatda targ‘ibot masalasi haqida to‘xtalgan ma’qul. Chunki televideniylarda bolalar shoirlariga umuman vaqt ajratilmaydigan bo‘lib qoldi. Bir paytlari markaziy televideniya “Shoirlar – bolalarga!” degan ajoyib ko‘rsatuv bo‘lardi. Shu ko‘rsatuv qayta tiklansa, ayni muddao bo‘lar edi. “Bolajon” kanalining mavzular doirasi juda tor. Faqat har xil shou o‘yinlari, multfilm va kinodan boshqa narsa berilmayapti. “Bolajon”, “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Yoshlik” kanallarida ham bolalar shoir va yozuvchilari uchun har hafta salmoqli vaqt ajratilishi lozim. Ana shunda yosh tomoshabinlar o‘z davri adiblarini tanib, asarlari bilan tanishib boradi.

2020-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi “Biz yodlaymiz, tez yodlaymiz!” ruknida bolalarbop turkum kitoblarni chop qilgan edi. Afsuski, bu turkum kitoblar orasida bolalar uchun yozishda hali qalami charxlanmagan

ijodkorlarning ham to‘plamlari bosilib chiqdi. Sevgi-muhabbat yoxud boshqa mavzuda binoyidek she‘rlari bilan elga tanilgan shoirlarning bolalar uchun chiqargan kitobini mutaxassislar tomonidan yaxshi baholanmagani ham sir emas. Chunki mavzu bolalarbop bo‘lgani bilan so‘z, ohang, hijolar o‘qish va yodlash, shuningdek, tushunib yetishga qulay, sodda, ravon bo‘lmog‘i kerak. Afsuski, “Biz yodlaymiz, tez yodlaymiz!” turkumida chop qilingan katta shoirlarning bolalar uchun chiqargan kitoblarida tajribasizlik ko‘zga tashlanib turibdi. Meningcha, bunday turkumlarda bir nafar bolalar adibining bir necha kitobini nashr qildirganda ham yutqazilmaydi.

Xorazmlik Rustam Nazar zabardast bolalar shoiri deb e‘tirof qilingan. Afsuski, Rustam aka oramizdan ketganiga o‘n yil o‘tgan bo‘lsa ham uning quvnoqlik va zukkolik ufirib turgan she‘rlari kitob tugul, davriy matbuotda ham nashr qilinmayapti.

Kampir asta ming‘irlab  
Kir yuvadi eshikda.  
Goh nolinib qo‘yadi,  
Tog‘orasi teshik-da.

Kuzatadi chol zimdan,  
Chehrasida o‘ynar nur.  
- Biz yoqlarda dengizning  
Yo‘qligiga ham shukur.<sup>7</sup>

Rustam Nazarning bu quyma misralarini, ayting, kim miriqib o‘qigisi kelmaydi? Bunday she‘rlarni kattalar ham huzurlanib o‘qiydi, albatta. Shuning uchun ham bunday yetuk ijodkorlarning asarlarini har yili kitob holida chop qildirib, vaqqli matbuotda ham berib turilsa, foydadan holi bo‘lmaydi.

Eng yomoni, bolalar shoirlari bir chetda qolib, malakasi yetarli bo‘lmagan shaxslarning kitoblari maktabgacha tarbiya muassasalari yoki umumta‘lim maktablariga kirib bormoqda. 1-sinflarga mo‘ljallangan “Ona tili” darsligining 1-qismi, 7-betida Iroda Umarovaning “Ona tilim” she‘ri shunday beriladi.

Ona tilim – yurak qa‘rimdan  
Mehr bo‘lib sochilgan jarang.  
Qulog‘imga go‘dak paytimdan  
Alla bo‘lib singgan ohang.

Ona tilim – necha asrlar  
Kurashida yenggan polvonim.

<sup>7</sup> Rustam Nazar, “Yerdagi quyosh”, Saylanma. Urganch: - “Xorazm” nashriyoti, 2008-yil.

Necha ajdod, necha nasllar  
Suyub o‘tgan turkiy zabonim.<sup>8</sup>

Bu she’rda ohang va qofiyalar yetarli darajada pishiq emasligi ko‘rinib turibdi. Shuningdek, muallif so‘z tanlashda loqaydlikka yo‘l qo‘ygan. Bu esa, she’rning bola tomonidan tez o‘zlashtirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, 1-sinflarga mo‘ljallangan “O‘qish savodxonligi” darsligining 1-qismida ancha bo‘sh va g‘aliz she’rlar uchraydi. Ayrim she’rlarda turoqlanish va qofiyaga e’tibor berilmagan. Ayrim she’rlarda yechim va tugal ma’no chuchmalligi bilan ta’bga o‘rnashmaydi. Misol uchun Miltiqboy Xonnazarov qalamiga mansub “Bobom Alisher” she’ri shunday yakunlanadi:

Bobom qo‘lida kitob,  
El oralab yuribdi.  
Dono yoshlarga boqib,  
Kulib qarab turibdi.<sup>9</sup>

Bunday sayoz va jo‘n satrlarga bugungi global rivojlanish bosqichidagi o‘zbek bolalarini ishontirish qiyin, albatta.

Boshlang‘ich sinf darsliklari bilan birga yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan adabiyot va ona tili darsliklarida ham qator chalkashliklar va boshqa kamchiliklar talaygina. Ayrim darsliklar eski shablonda yaratilgani juda achinarli. Misol uchun, Shekspirning “Otello” asari haqidagi matnlar darslikning keyingi qayta nashrlarida Gamlet uchun qo‘llanilgan. Bu nihoyatda kulguli.

Maktab ta’limi uchun mo‘ljallangan “O‘qish savodxonligi”, “Ona tili” va “Adabiyot” darsliklari bolalar adiblari bilan bamaslahat yaratilsa, ayni muddao bo‘lur edi. Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengashga bolalar ijodkorlari yoki bolalar adabiyoti tadqiqotchilari ham a’zo sifatida kiritilsa, bu boradagi muammolar bartaraf qilinishiga erishilar edi.

Eng muhimi, bolalar adabiyoti fani oliy ta’lim filologiya yo‘nalishi uchun majburiy fan sifatida kiritilmas ekan, Rahmatulla Barakayev singari bolalar adabiyoti tadqiqotchilari kamayib boraveradi. Negaki, aksariyat hollarda bolalar adabiyoti bo‘yicha ilmiy tadqiqot qilgan yosh olimlar o‘z sohasi bo‘yicha dars bera olmaydi. Tadqiqotchi olimlarning boshqa fandan darsga kirishi bolalar adabiyotining ora yo‘lda qolishiga olib kelishi ham mumkin.

Yana e’tibor berish kerak bo‘lgan jihat shuki, boshlang‘ich sinf darsliklari hammualliflaridan biri filolog, ayniqsa, bolalar adabiyotini yaxshi biladigan mutaxassis bo‘lsa soz bo‘lardi.

<sup>8</sup> D.Sh. Yuldasheva, “Ona tili. 1-sinf. 1-qism”. Toshkent: “Novda Editainment” nashriyoti. 2023-yil.

<sup>9</sup> “O‘qish savodxonligi” 1-sinf. Toshkent: “Novda Editainment” nashriyoti. 2023-yil.

Taklif sifatida aytmochimanki, har olti oyda poytaxtda bolalar uchun asar yozayotgan ijodkorlar va mazkur soha tadqiqotchilarining boshini bir joyga to‘plab, ularning muammo va yutuqlari o‘rganilsa, seminar-kengashlar tashkil qilinsa, ayni muddao bo‘lar edi. Bunday tadbirlarda nafaqat adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, balki kinochi-ssenareynavislar, teatr rejissyorlari, bastakor va rassomlar ham ishtirok etib, bolalar uchun san‘at asarlari yaratish masalalarini muhokama qilishsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Chunki bolalar uchun nafaqat yaxshi kitob, balki yaxshi va qiziqarli kino, qo‘shiq hamda boshqa sahna asarlari ham o‘ta zarur.

E’tibor bering, “Buratino”, “Bor ekanda, yo‘q ekan”, “Chippolino”, “Finis sarlochin” kabi badiiy filmlar yaratilganiga yarim asrdan ko‘p vaqt oshibdi, bolalar hanuz ularni sevib tomosha qilib kelmoqda. O‘zbek kinosida esa bunday filmlar bilan bellasha oladigan tomosha asarlari deyarli yo‘q hisobi. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib...” romani asosida yaratilgan kino esa maromiga yetmagan, u kitobdagiga qaraganda zerikarli, sarguzashtlarga boy emas.

Xalqimizda kengashli to‘y tarqamas, degan hikmat bor. Oldinlari rahmatlik Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyevdek ulug‘ ustozlarimiz holimizni so‘rab, ijodga undab turardi. Ulardan keyin bugungi kunda o‘zbek bolalar adabiyoti liderga muhtoj. Xorazmda “Yetim qo‘zi kalo (rasida) bo‘lmaydi”, degan otalar so‘zi lafzda yuradi. Bu soha sag‘ir qolmasligi kerak, uning adolatli rahnomasi bo‘lishi zarur. Bu zalvarli vazifa professor Rahmatulla Barakayev chekiga tushgani barchani birdek quvontiradi.

Ustozni tabarruk 70 yoshi bilan chin qalbdan muborakbod etaman! Ilohim umringiz uzoq va fayzli bo‘lsin! Siz kabi fidoyi olimlar bor ekan, o‘zbek bolalar adabiyoti yuksak cho‘qqilarni zabt etishiga ishonaman!

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi”. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2004-yil.
2. Barakayev, P. Uzbekskaia detskaya literatura nachala XX veka i tvorchestvo Abdulla Avloni: avtoreferat dis. ... kandidata filologicheskix nauk : 10.01.03. - Toshkent, 1994. - 32 s. : il.
3. Barakayev R. “Jonajonim, she’riyat”. Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1997 yil.
4. Toshkent shoirlari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2007-yil (N.Karimov bilan hammualliflikda).
5. R.Barakayev, B.Ashurov. “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar”. – Toshkent: “Akademnashr”, 2014-yil.
6. Anvar Obidjon, “Ey yorug‘ dunyo”. Toshkent: “Yulduzcha” nashriyoti, 1983-yil.
7. Anvar Obidjon, “Dahshatli Meshpolvon”. Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti. 1990-yil.

8. “O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. 1-2 jildlar. Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi; “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006-yil.
9. O‘zbek sovet bolalar adabiyoti tarixi ocherki. – T.: “Fan” nashriyoti, 1978. – B. 4-5.
10. To‘plovchilar: R. Barakayev, Z. Isomiddinov. “Beg‘uborlik kuychisi”. Tursunboy Adashboyev haqida maqolalar to‘plami. Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2011-yil.
11. D. Sh. Yuldasheva, “Ona tili. 1-sinf. 1-qism”. Toshkent: “Novda Editainment” nashriyoti. 2023-yil.
12. “O‘qish savodxonligi” 1-sinf. Toshkent: “Novda Editainment” nashriyoti. 2023-yil.
13. Rustam Nazar. “Yerdagi quyosh”, Saylanma. Urganch: - “Xorazm” nashriyoti. 2008-yil.